

**Toshkent viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining  
Toshkent viloyat Kengashi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Toshkent viloyat  
hududiy boshqarmasi o'rtaida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha  
2023-2025 yillar uchun**

**HUDUDIY JAMOA KELISHUVI**

Toshkent viloyati hokimligi (bundan buyon – “Hokimlik”), O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyat Kengashi (bundan buyon – “Kasaba uyushmalari”) va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (bundan buyon – “Ish beruvchilar”) keyingi o'rirlarda “Taraflar” deb ataluvchi muxtor vakillar timsolida:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga amal qilib;  
fuqarolarning huquq va erkinliklari, mustaqil O'zbekiston manfaatlari ustuvorligini e'lon qilib;

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga amal qilgan holda;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va O'zbekiston Ish beruvchilari konfederatsiyasi o'rtaida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha 2023-2025 yillar uchun Bosh jamoa kelishuviga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish borasida davlat siyosatini qo'llab-quvvatlab;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan qo'yilgan: iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish, iqtisodiy salohiyatni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni izehil amalga oshirish, tadbirkorlik sub'ektlari raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini kuchaytirish asosida aholi turmush darajasini ko'tarish vazifasi so'zsiz bajarilishi lozimligini tasdiqlab;

davlat, ish beruvchilar va xodimlarning ijtimoiy mas'uliyati va ular o'rtaсидаги ijtimoiy muloqot muhimligini e'tirof etgan holda;

xodimlar va ish beruvchilarning huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy mansaatlari himoya qilinishini ta'minlash, aholi hayot darajasini muttasil oshirib borish, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni saqlash borasida samarali hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ijtimoiy sheriklik tamoyilini amalga oshira borib;

xodimlarning hudud uchun umumiy bo'lgan mehnat shartlarini, kafolatlari va imtiyozlarini belgilab beruvchi mazkur Hududiy jamoa kelishuvini tuzdilar (bundan buyon “Kelishuv”) va o'z zimmalariga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha majburiyatlarni oldilar.

**I. Iqtisodiyotni, mahalliy ishlab chiqarishni hamda  
tadbirkorlikni rivojlantirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-soni Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”da Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida belgilab berilgan chora-tadbirlar o'z vaqtida va so'zsiz



bajarilishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida Taraflar kelgusi davrda quyidagilarni o'ta muhim deb hisoblaydilar:

1. Iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish, sanoatni va tashqi savdoni diversifikasiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, tayyor mahsulot eksportini rag'batlantirish bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish choralarini joriy etish hisobiga milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga doir ishlarni hamkorlikda olib borish.

2. Iqtisodiyotda xususiy mulk ulushini oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, faoliyatning barcha sohalarida davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotni - 1,8 baravar oshirish.

4. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi hududiy mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,7 baravarga oshirish.

5. Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish.

6. Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzliksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 27 foizga oshirish.

7. Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,8 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.

8. Viloyatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.

9. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish.

10. Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 8 foizga yetkazish.

11. Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,8-2 baravar ko'paytirish.

12. Hududiy iqtisodiyotni 1,8-2,5 baravarga oshirish.

13. Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish.

14. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuq'talari" dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish.

15. "O'zbekiston bo'y lab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyoohlар sonini o'n (10) ming nafardan oshirish hamda viloyatga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini o'n ikki (12) ming nafarga yetkazish.

16. Shaharlar va tumanlar o'rtaida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.



## II. Norma ijodkorligi ishlarida ishtirok etish va xodimlarning huquqiy himoyasini ta'minlash

Me'yoriy ijodkorlik faoliyatini takomillashtirish va huquqiy himoya mexanizmlaridan samarali foydalanish yo'lli bilan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida. Taraflar quyidagilarni o'z zimmalariga oladilar:

17. Xodimlarning mehnat va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va qonuniy manfaatlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyat Kengashi hamda O'zbekiston Savdo sanoat palatasini Toshkent viloyat hududiy boshqarmasining ishtirokini ta'minlash.

18. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini amaliyotga keng joriy qilish va viloyat aholisining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi haqida xabardorligini oshirish;

19. Xalqaro mehnat tashkilotining:

Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95сон;

Ijtimoiy ta'minotning eng kam normalari to'g'risidagi 102сон;

Eng kam ish haqini o'rnatish to'g'risidagi 131сон;

Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 132сон:

Hamshiralarning bandligi hamda mehnat va turmush sharoitlari to'g'risidagi 149сон;

Ishlab chiqarish muhitida mehnat havfsizligi va gigienasi to'g'risidagi 155сон;

Oilaviy majburiyatlar bilan mehnat qiluvehilar to'g'risidagi 156сон;

Mehnat gigienasi xizmatlari to'g'risidagi 161сон;

Tadbirkor to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda mehnatkashlarning talablarini himoya qilish to'g'risidagi 173сон;

Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 1952 yilgi konvensiyani qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi 183сон:

Qishloq xo'jaligida mehnat havfsizligi va gigienasi to'g'risidagi 184сон;

Mehnat sohasida zo'ravonlik va ta'qiblarni bartaraf etish to'g'risidagi 190сон konvensiyalarini milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish va takliflar ishlab chiqishda Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uchomonlama komissiyasiga ko'maklashish.

20. Quyidagi masalalar bo'yicha yuqori turuvchi organlar tomonidan tegishli normativ-huquqiy va boshqa hujjat loyihalari taqdim qilinganda ularga doir takliflarni birgalikda ishlab chiqish:

Birlashgan millatlar tashkilotining Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Xalqaro konvensiyasi loyihasiga;

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi, "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi, "Majburiy tibbiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunlari loyihalari mazmuniga;

"Iste'mol savatchasi" va "tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor" tushunchalarini qonuniy tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilishga.



21. Mehnat bozorini tartibga solish sohasida qonun bilan o'rnatilgan tartib ustidan nazorat samaradorligini oshirish, shu jumladan, kasaba uyushmalari inspeksiyalarining ishtirokini kengaytirish yo'lli bilan.

22. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va ishonch telefonlari tarmog'ini kengaytirish, sayyor qabullarni joriy etish orqali ijtimoiy-mehnat masalalari yuzasidan aholi bilan Qayta aloqa mexanizmi kanallarini yanada ko'paytirish.

23. Mehnat qonunchiligi buzilishining oldini olish borasida, shuningdek Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlarining ijrosini ta'minlashda kasaba uyushmalarining barcha korxona, tashkilot va muassasalar hamda O'zbekiston Savdo sanoat palatasini Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi bilan tizimli hamkorligini ta'minlash.

24. Kasaba uyushmalarining mehnat qonunchiligi talablari buzilgan holatlar bo'yicha kiritgan taqdimnomalarini ish beruvchilar (ularning birlashmalari) ko'rib chiqmaganda yoki undagi talablarni bajarishni asossiz rad etganda, materiallarni Davlat mehnat inspeksiyasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish hamda ular tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqitishini ta'minlash.

25. Ma'lum bir sohada xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etish ehtimoli to'g'risida ish beruvchilar tomonidan o'z vaqtida, kamida ikki oy oldin O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Toshkent viloyat Kengashi hamda tegishli tarmoq kasaba uyushmasi Respublika kengashiga axborot taqdim etish va ishdan ozod etish oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan maslahatlashuv ishlarini amalga oshirish.

26. Viloyatdagi korxona, tashkilot va muassasalarda majburiy mehnatga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi 349-soni "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan me'yor va talablarga to'liq rioya etilishini ta'minlash.

27. Majburiy mehnatga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 iyuldagji "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PI-5775-tonli Farmoni bilan tashkil etilgan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish Milliy komissiyasi va viloyat hududiy komissiyasi tomonidan qabul qilingan tegishli dastur va chora-tadbirlarda belgilangan vazifalarni hamkorlikda amalga oshirilishini ta'minlash.

28. Viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari, korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash, mehnat unumdarligini oshirish, xodimlarning samarali faoliyatini uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

ishdan tashqari vaqtida, ayniqsa dam olish va bayram kunlarida xodimlarning asossiz ravishda mehnatga jalb etilmasligini ta'minlash maqsadida jamoatchilik nazorati doirasida monitoring tashkil etish;

qonunchilikda belgilangan ish vaqt doirasida xodimlarning yuqori mehnat unumdarligiga erishish;



xodimlarni ular dam oладиган кунлари ishga jalb etish Mehnat kodeksida belgilangan talablarga rioya etган holda amalga oshirish hamda ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlaridagi ishlар uchun kamida ikki hissa miqdorda haq to‘lanishini yoki xodimning xohishiga qarab boshqa dam olish kuni (otgul) berish bilan qoplash;

tegisli kasaba uyushmasining yoki boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotining oldindan roziliginи olmasdan turib mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yilmasligini ta‘minlash;

xodimlarga mehnat ta‘tillari o‘z vaqtida berilishini ta‘minlash va shu vaqt davomida ularning salomatligini tiklash uchun kasaba uyushmalari va ish beruvchilar orqali amaliy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash.

29. Viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalari va malaka oshirish bo‘yicha ta‘lim muassasalarida “Xalqaro va milliy mehnat standartlari” mavzusida o‘quv-seminarlarini o‘tkazib borish.

30. Fuqarolar, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish.

31. Ish beruvchilarni (korxona va tashkilotlar rahbarlarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarini) “Mehnat munosabatlari” bo‘yicha malakalarini muntazam oshirib borishlarini ta‘minlash.

Ish beruvchi bo‘lgan mikrofirmalarda mehnatga oid munosabatlar (mehnat intizomi, xodimlarni mukofotlash, ish sменалари va boshqalar) ichki hujjatlar yoki bevosita O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shakldagi mehnat shartnomalari asosida huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta‘minlash

32. Xalqaro mehnat standartlarining mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish, ularning korxona va tashkilotlarda ijrosi yuzasidan birgalikda monitoring o‘rnatisht;

davlat va kasaba uyushmalarining inspeksiyalari tizimini yanada mustahkamlash, shu jumladan “Mexnat M” Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish markazini tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash.

### **III. Mehnatga haq to‘lash, daromadlar va aholining turmush darajasi**

Taraflar kelgusi davrda aholi daromadlari va turmush darajasini og‘ishmay yuksaltirib borishni, viloyat aholisini ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni kuchaytirishni nazarda tutuvchi choratadbirlar majmui amalga oshirilishi zarur deb hisoblaydilar. Bu maqsadda Taraflar quyidagilarni o‘z zimmalariga oladilar:

33. Muzkur Kelishuvning amal qilish davrida mehnatkashlarning real ish haqi va daromadlarini oshirishga, ya‘li ichki mahsulot tarkibida mehnat haqi ulushini 30 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda saqlab turishga doir choralar ko‘rish.

34. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida 2023 yilda yillik inflyatsiya darajasini 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko‘rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat budjeti taqchilligi ushibu ko‘rsatkichdan oshmasligini ta‘minlab borish, iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy choralarnini doimiy ravishda ko‘rib borish.



35. Xo'jalik hisobidagi tashkilotlarda xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etish uchun asos sifatida Yagona tarif setkasining oshirilgan tarif koeffitsientlarini belgilashni jamoa shartnomalari orqali amalga oshirish.

36. Mehnatga haq to'lash sondining asosiy va qo'shimcha qismlari o'rta sidagi maqbul nisbatni jamoa muzokaralarini natijasida o'matilishini ta'minlash.

37. Mehnatga haq to'lashning tarif tizimidan tarifsiz tizimlariga o'tishni tegishli tarmoq kasaba uyushmasi viloyat kengashi yoki uning bo'linmasi bilan oldindan kelishib olinishini hamda xodimlarning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholashga boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti saylanma organi vakillari jalb etilishini ta'minlash.

38. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 sentabrdagi 743-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tuman koeffitsientlari, shuningdek, yillik qo'shimcha ta'tilning eng kam muddati qo'llaniladigan tabiiy-iqlim sharoitlari og'ir va noqulay bo'lган joylar ro'yxati"da ko'rsatilmagan tabiiy-iqlim sharoitlari og'ir va noqulay bo'lган ayrim joylarda ishlaganlik uchun ustamalar va qo'shimcha ta'tillar qo'llanilishi to'g'risidagi shartlarni nobudjet tashkilotlarining jamoa shartnomalarida nazarda tutishni tavsiya etish.

39. Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlarda:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 sentabrdagi 743-son qarori bilan tasdiqlangan "Ishlarning ayrim texnologik turlari, ishlab chiqarishlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishchilarning tarif stavkalarini oshirishning tarmoq koeffitsientlarini qo'llash tartibi va ularning miqdorlari to'g'risidagi Nizom" talablarini;

ko'chma va qatnash tusidagi ishlar uchun ustamalar belgilanadigan xodimlar kasblari va favozimlari ro'yxati, shuningdek, ustamalar miqdori ish beruvchilar tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilanishini va jamoa shartnomasida ko'rsatilishini;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi hamda O'zbekiston avtomobil transporti agentligining 2019 yil 22 yanvardagi 2-2019/QQ, 9 va 1/103-son qarori bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 3130, 2019 yil, 23 yanvar) "Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari to'g'risidagi Nizom" talablarini tadbiq qilish.

40. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga rioxha etilishi, mehnatga haq to'lash tizimlari kasaba uyushmasi qo'mitalari bilan kelishuvga binoan belgilanishi, ish haqidan qonunchilikda ko'zda tutilmagan ushlab qolishlarga yo'l qo'yilmastigi ustidan davlat va janoatchilik nazoratini o'matish.

41. Xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mayjud bo'limganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n oli kundan ko'p bo'limgagan tanaffus bilan ikki qismiga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lash:

Ish beruvchi tomonidan ish haqini va boshqa to'lovlarini to'lash muddati buzilgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun O'zbekiston



Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtida amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda (10 foiz) soizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to'lanishini davlat va kasaba uyushmalari mehnat inspeksiyalari tomonidan nazoratga olish.

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son Qarori asosida kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning mehnat malaka darajasini hisobga olgan holda ish haqi to'lanilishi ustidan tizimli jamoatchilik nazorati o'rnatilishi.

#### **IV. Mehnat bozorini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish**

Mehnat bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hamda aholini ish bilan ta'minlangantik darajasining yuksaltirishini o'z maqsadi deb e'tirof etgan holda Taraflar yangi ish o'rinalarini yaratish, kadrlar salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish borasida kuchlarni birlashtirish zarur deb hisoblaydilar va quyidagilarni o'z zimmalariga oladilar:

43. Bandlik yo'nalishlari, tarmoqlar va hududlar kesimida aholi bandligi yillik dasturlarini ishlab chiqish va bajarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlab borish. Bunda barqaror ish haqini va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi doimiy ish o'rnlari, ayniqsa qishloq joylarida yaratilishiga, ish o'rinalarini tashkil etayotgan ish beruvchilarni yanada rag'bautlanirishga alohida e'tibor qaratish;

Ish beruvchilarning bandlik va ishga joylashtirish sohasidagi majburiyatlarini bajarishini nazorat qilish;

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari tomonidan davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtiroy etish, bandlikni ta'minlash, shu jumladan yangi ish o'rinalarini tashkil qilish va mayjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish,

44. Norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtiroy etish.

o'zini o'zi band qilganlarni va yakka tartibdagи tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan maqsadli jaing'armalardan olingen subsidiyalar va kreditlardan (yoki tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa chora-tadbirlardan) foydalanish samaradorligini hamda ular yaratgan ish o'rinalari samaradorligini monitoring qilish.

45. Xalqaro Mehnat Tashkilotining uslubiyoti bo'yicha hisoblab chiqilgan umumiy ishsizlik iqtisodiy faol aholining ijtimoiy maqbul darajasidan oshmasligini ta'minlash, ishsiz fuqarolarni kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek ularni haq to'lanadigan jumoaat ishlariga jalb qilinishini kengaytirish.

46. Oliy, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari, O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari safidan muddatli harbiy xizmatdan qaytgan shaxslar, yoshlar, voyaga yetmagan farzandlari bor ayollar, uogironligi bor shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining boshqa toifalarini ishga joylashtirilishiga har tomonlama ko'maklashish.



47. Mehnat bozorini tahlil qilish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni, ta'lif muassasalari bitiruvchilarini mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishi va ish o'rinalarda qo'nimliligi ta'minlanishi uchun ish beruvchilar mas'uliyatini oshirish va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

48. Ijtimoiy sheriklar tomonidan bandlikning beqaror turlarida band fuqarolar huquqlari ta'minlanishiga, xususiy bandlik agentliklari faoliyati ustidan davlat va jamoatechilik nazoratini yo'lga qo'yishga, kasaba uyushmalarining hamda Ish beruvchilar birlashmalarining vakillari viloyat va tuman, shahar hokimliklari huzuridagi tegishli ishechi komissiyalar tarkibiga jalb etilishiga ko'maklashish.

49. Yuridik shaxslarning tugatilishi va qayta tashkil etilishi natijasida ish joyidan bo'shatilgan xodimlarning qonuniy huquqlariga rivoja etilishi, ularni qayta o'qitish, malakasini oshirish va ishga joylashtirishga ko'maklashish.

50. Ishlab chiqarish korxonalarida malakali kadrlarga ehtiyoj yuqoriligini inobatga olgan holda dolzarb kasblar (payvandehi, elektromontyor, turli stanoklarni ishlatish bo'yicha mutaxassislar, xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislar va h.k.)ga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli innovatsion o'quv kurslar tarmog'ini kengaytirish va doimiy ravishda rivojlantirib borish.

51. Erkin iqtisodiy zonalar hududida tashkil etilgan korxonalarda yaratiladigan yangi ish o'rinalining 7 foizdan kam bo'limgan miqdorini zaxira qilib qo'yish orqali kasaba uyushmalari va Aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining yo'llanmalari asosida ushbu ish o'rinalariga ish topishda qiynalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni talab mayjud bo'lgan faoliyat yo'nalishkari bo'yicha ishga joylashtirishga ko'maklashish.

52. Yoshlar, ayollar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun inklyuziv va adolatli iqtisodiy o'sish natijasida yaratilgan bandlik va munosib mehnat imkoniyatlari to'g'risida aholi o'z vaqtida va xolisona xabardor qilinishini ta'minlash.

53. Yoshlar, xotin-qizlar va band bo'limgan aholi o'rtasida kasbga yo'naltirish mexanizmlarini targ'ib qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan, Kasbga yo'naltirish va martabani rivojlantirish markazlarini tashkil etish orqali.

54. Xizmat ko'rsatish modelini takomillashtirish, mehnat bozoridagi faol siyosatni boshqarish sumaradorligini oshirish, mehnat organlari xodimlari mehnati unumdorligini baholashi mexanizmlarini ishlab chiqish orqali Davlat bandlik xizmati salohiyatini kuchaytirish;

mehnat orgamlari va Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida aholi va ish beruvchilarning xabardorligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (yoshlar, ayollar, nogironlar va boshqalar)ni chekka hududlarda bo'sh ish o'rinalari yarmarkalarini tashkil etish orqali ishga joylashtirish.

55. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 mart "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-soni Qarorida belgilab berilgan vazifalar doirasida mehnat muhajirlari va ularning oila a'zolari uchun ijtimoiy himoya choralarini ko'rish.



## V. Mehnat xavfsizligi va gigienasi

Mehnat xavfsizligi va gigienasini hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb hisoblagan holda, Taraflar o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

56. Mehnat xavfsizligi va gigienasi tizimini joriy etish, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish.

57. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiyalar tarkibida tuziladigan mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini tashkilotlarda mehnat sharoitlarini yaxshilashga va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirish;

58. Xodimlarning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishlarini oldini olish, shuningdek, ularning paydo bo'lish sabablarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirishga e'tibor qaratish va jamoatchilik nazoratini tizimli yo'lga qo'yish.

59. Mehnat xavfsizligi va gigienasi masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlар va normativ-huquqiy hujjatlarda hamda tarmoq va hududiy kelishuylar, jamoa shartnomalarida ko'zda tutilgan, xodimlarga yaratilgan mehnat sharoitlari, sanoat va ekologik xavfsizlik holatini davlat nazorat organlari bilan hamkorlikda o'rganishni amalda keng qo'llash.

60. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha Toshkent viloyat uch tomonlama komissiyasining vakolati doirasida davlat va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish:

tashkilot rahbarlari va boshqa mansabdar shaxslaridan mehnat sharoitlari va xavfsizligi, shuningdek, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risida to'liq axborot olinishi;

korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat xavfsizligi va gigienasi bo'yicha tadbirdarning moliyalashtirilishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishini, shuningdek ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimini ta'minlanishi;

ish o'rinalarda mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli ishlab chiqarish omillari yuzasidan nazorat amalga oshirilishi;

xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironligi bor shaxslar band bo'lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o'rinalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish o'rinalarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilishi;

dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklar belgilangan tartibda o'tkazilishi;

ish beruvchilarining jamoa shartnomalari va kelishuvlarida mehnat xavfsizligi va gigienasi holati yuzasidan ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarishini o'rganish;

xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni berilishi, hamda ularga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilgani, mehnatni muhofaza qilish masatalari bo'yicha o'quvdan va malaka oshirishdan o'tganligi;



xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya hamda gigiena vositalari bilan ta'minlanishi, shuningdek jamoaviy himoya vositalari qo'llanilishi holati;

ishlab chiqarish ob'ektlari va ishlab chiqarish vositalarini sinash va foydalanish uchun qabul qilish komissiyalari ishida hamda tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi majlislarida mustaqil ekspert sifatida ishtirok etilishi;

ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi va gigienasi talablarining buzilishi va baxtsiz bodisalarini yashirganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida vakolatlari organlarga murojaat qilinishi;

mehnat xavfsizligi va gigienasi bo'yicha vakolatli vakillarni saylash, o'qitish, va ularni malakasini doimiy ravishda oshirib borish hamda jamoa shartnomalari va kelishuvlariga ular o'z faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun qulay sharoitlarni yaratish majburiyatini kiritilishi.

61. Mehnatni muhofaza qilish va gigiena masalalarining muhim o'rinn tutishi haqida jamoat fikrini shakllantirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlarini olib borish.

62. Kasaba uyushmlari tizimida mehnat xavfsizligi va gigienasi bo'yicha jamoat nazoratini tashkil etish yuzasidan uch tomonlama hamkorlarni jalb etgan holda Respublika ko'trik-tanloving viloyat bosqichini tashkil etish va o'tkazish.

63. Band bo'lgan aholining mehnatini muhofaza qilish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida qishloq xo'jaligida, sanoatda, qurilishda, aloqada, tashish va saqlashda mehnat muhofazasiga oid talab va meyorlar standartlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish.

64. Har yili 28 aprel "Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni"ga bag'ishlab xafthalik tashkil etish va barcha tashkilotlarda nishonlanishini tashkil etish.

65. Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan mehnat muhofazasiga oid Konvensiyalari talablari bajarilishi ustidan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlarda monitoring olib borish.

66. 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish ishlarida ishtirok etish, munosib mehnat maqsadiga yetishda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishi uchun tizimli chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash.

67. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ijro etilishi bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borish.

## **VI. Ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy himoya**

Xodimlar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish, munosib hayot uchun mehnat qilish shart-sharoitlarini yaratib berish maqsadida Taraflar o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

68. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrdagi "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga



doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2705-sonli Qarorini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish:

Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatga oid yakka tartibdagi huquqiy munosabatlarda boshqa xodimlar kabi huquqlarga ega ekanligi, mehnatni muhofaza qilish sohasida, ish vaqt, ta'tillar va boshqa mehnat shart-sharoitlari borasida esa ular o'zi uchun belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanishini ta'minlash;

Ish beruvchiga o'zining mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shimcha badallar to'lash huquqi beriladi. Qo'shimcha badallarning miqdori va ularni kiritish muddatlari jamoa shartnomasida, agar bunday shartnomaga tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishib belgilash.

69. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishga oid Davlat dasturlari bajarilishiga har tomonlama ko'maklashish.

70. Har bir mahallada yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironligi bor shaxslar, imkoniyati cheklangan bolaarni tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan hamda ko'p bolali oilalarga moddiy yordam ko'rsatish uchun har yili "Navro'z" va "Mustaqillik" bayramlari arafasida maqsadli umumixalq xayriya hasharlarini o'tkazish.

71. Jamoa shartnomalari orqali kam ta'minlangan oilalarga, ko'p bolali oilalarga, urush va mehnat faxriylariga doimiy ravishda moddiy yordam ko'rsatib borish:

kasaba uyushmalari va ish beruvchilar birlashmalari tomonidan yolg'iz keksalarga, shuningdek "Saxoval" va "Muruvvat" uylariga moddiy ko'mak choralarini qo'llash.

72. Notinch va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Oilaviy sayohat" turistik paketlarni joriy etish.

73. O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish Strategiyasida qo'yilgan vazifalar o'z vaqtida va to'liq bajarilishiga har tomonlama ko'maklashish.

Fayqulodda holatlar yuzaga kelgan taqdirda aholi uchun Xalqaro mehnat tashkilotining "Tinchlikni va qarshi harakat salohiyatiini ta'minlash maqsadida bandlik va munosib mehnat to'g'risida"gi 205-sod Tavsiyasi asosida ijtimoiy himoya choralarini ko'rish.

## **VII. Madaniy-ma'rifiy ishlar, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini sog'lonlashtirish**

Taraflar o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarini oladilar:

74. Xodimlar va ularning oila a'zolarining foydalı hamda mazmunli hordiq chiqarishlarini tashkil etishi maqsadida ma'noviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini hamkorlikda o'tkazish.

75. Xodimlarga jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratib berish (sport maydonchalari tashkil etish, maxsus sport xonalarini ajratish), turli sport seksiyalari va to'garaklariga jalb etish, mehnat jamoalarida xodimlar gimnastikasini joriy etish hamda jismoniy tarbiya jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yish.



76. Har yili kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar a'zolari, Chernobil AESidagi falokatni bartaraf etish ishtirokchilari, baynalminalchi jangchilar, ishlayotgan mehnat faxriylari va nogironligi bor shaxslar hamda O'zbekiston Respublikasi oldida xizmatlari bor shaxslarning ma'lum miqdorini kasaba uyushmalari sog'lomlashtirish uylarida bepul sog'lomlashtirishni ko'zda tutish.

77. Yoz mavsumida bolalarning bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishi va sog'lomlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirib borish.

78. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari, shuningdek respublikaning ekologiya jihatdan noqulay mintaqalarida istiqomat qiluvchi bolalar sog'lomlashtirilishiha doimiy ravishda ko'maklashish.

79. Ish beruvchilarga xodimlar va ularning oila a'zolarini har yili madaniy dam oldirish va sog'lomlashtirishlarini hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasidagi sayohatlari uchun sharoit yaratishlarini tavsiya etish.

### **VIII. Ayollar va yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar**

Taraflar ayollar va yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kafolatlarga rioya etishni va imtijozi berishni o'z zimmasiga olgan holda quydagilarni zarur deb hisoblaydilar:

80. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus"i bo'yicha dasturlaridan kelib chiqib yoshlar va xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan:

ishlayotgan yoshlar faoliyatidagi, oliy va kasb-hunar ta'llimi muassasalarini talabalarida salbiy holatlarni, jumladan, ertangi kunga ishonech so'nishining oldini olish, ish haqi, mehnat sharoittidan minnatdorlik hissini uyg'otish maqsadida yoshlar o'ttasida madaniy-ma'rifiy, jismoniy turbiya va sport tadbirlarini amalga oshirish.

yoshlarning xorijiy til, kompyuter savodxonligi hamda zamonaviy bilimlarni mukammal egallashlariga turli xil o'quvlar o'tkazish orqali ko'maklashish, ular orasidan salohiyatli yoshlarni tanlab olgan holda kadrlar zahirasini shakllantirish.

81. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida quydagilar nazarda tutilishini ta'minlash:

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash majburiyatlarini tashkilotlarning va ular tarkibiy bo'linmalarining vakolatl shaxsi zimmasiga yuklatish;

ishga qabul qilish va xizmat bo'yicha ko'tarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatiga haq to'lashda notenglikni bartaraf etish.

82. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida ayollar va yoshlarga imtijozi berish, ular uchun ma'nnaviy va moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash masalalarini nazarda tutish, shu jumladan:

homiladorlik va tug'ish ta'tillari kunini uzaytirish;

bolali ayollarga moddiy yordam ko'rsatish va qisqartirilgan ish vaqtini o'rnatish;



ta'lim muassasalari bitiruvchilariga mehnat munosabatlari sohasida qo'shimcha imtiyozlar o'rnatish;

xotin-qizlarning jismoniy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish,  
xotin-qizlar uchun sayohatkarini tashkil etib borish;

uzoq muddat foydalaniadigan tovarlar xarid qilish, uy-joy qurilishi, shuningdek safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tashga haq to'lash uchun yosh xodimlarga foizsiz ssudalar berish.

#### **IX. Ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish**

Taraflar, ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasidagi muammolarni ma'rifiy yo'l bilan hal etish uslubi hisoblangan ijtimoiy muloqot g'oyasiga sodiqligini e'lon qilib, o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

83. Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar birlashmalarining qonuniy huquqlariga rioya etish, ularning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda tuzilishiga va faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilinishiga yo'l qo'ymaslik.

84. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, shuningdek paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari (klasterlar) ish beruvchilariga kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish yuzasidan tavsiyalar berish.

85. Norasmiy tarzda band bo'lgan, shuningdek kunlik ishchilar hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni kasaba uyushmalariiga jaib qilish choralarini ko'rish.

86. Yagona muzokara jarayonini tadbiq qilish maqsadida quyidagilarni tavsija etish:

barcha jamoa shartnomalari va kelishuvlari loyihibarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazishni;

tegishli kasaba uyushmalari va ish beruvchilar (ularning birlashmali) o'rtafigi tarmoq (tarif) kelishuvlarini - tegishli yilning yanvar oyidan, korxona, tashkilot, muassasalarda jamoa shartnomalarini esa -- mart oyidan kechiktirmay tuzishni;

tarmoq kelishuvlari va jamoa shartnomalarini bajarish yakunlarini kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlarining qo'shma majlislarida, shuningdek, mehnat jamoalarining umumiyligi (konferensiya)larida har yili 1 apreldan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishini.

87. Kasaba uyushmalaring qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash maqsadida quyidagilarni tavsija etish:

viloyat va tuman, shahar hokimliklarining majlislariga xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va mansuatlariga taalluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqilayotganda kasaba uyushmalari viloyat Kengashi va tarmoq kasaba uyushmalari viloyat, tuman (shahar) kengashlari vakillari taklif etilishini;

kasaba uyushmalari viloyat Kengashi, tarmoq kasaba uyushmalari tuman (shahar) kengashlari rahbarlari va mas'ul xodimlarini korxona va tashkilotlar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hay'atlari majlislarida ishtirok etishini;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti rahbarini korxonaning boshqaruvi organlariga kirtilishini.



88. Dolzarb ijtimoiy iqtisodiy masalalarini muhokama qilish uchun kasaba uyushmalari faollari va ish beruvchilarning viloyat va tuman, shahar hokimliklari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari, korxona, tashkilot va muasssalar vakillari bilan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etib borish.

89. Tuman, shahar hokimliklari tomonidan tarmoq kasaba uyushmalari tuman (shahar) kengashlariga o'zlarining ustavida belgilangan vazifalarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoittarni yaratish va hamkorlikdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlashda amaliy yordam berib borish:

Ish beruvchilar xodimlar vakillarining huquqlarini buzmasligi, ularning faoliyatiga ko'maklashishini ta'minlash.

90. Xodimlarning yozma arizalari mayjud bo'lganda kasaba uyushmasining tegishli hisob varag'iqa xodimlarning ish haqidan ushlab qolingan kasaba uyushmasiga a'zolik badallari o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash.

#### **X. Kelishuvning amal qilishi, uni amalga oshirish mexanizmi va bajarilishi uchun taraflarning javobgarligi**

91. Mazkur kelishuv 2023-2025 yillar uchun tuzilgan bo'lib navbatdagisi qabul qilingunga qadar amalda bo'ladi. Kelishuv Toshkent viloyatining tuman va shaharlari hududida amal qiladi.

92. Mazkur kelishuv xodimlarning tegishli hudud uchun umumiyl bo'lgan mehnat shartlarini, kafolatlari va imtiyozlarini belgilab beruvchi ijtimoiy sheriklikning asosiy hujjati deb e'tirof etadilar hamda mazkur Kelishuvga amal qilish, uning barcha shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

93. Mazkur kelishuv imzolangandan so'ng Taraflar kelishuvda belgilangan vazifalarning torliq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Toshkent viloyati hokimligi viloyatdagi barcha davlat boshqaruvi organlari, korxona, tashkilot va muasssalar hamda tuman, shahar hokimliklariiga ijro uchun yuborilishini, ular tomonidan zarur chora-tadbirlar belgilanishini ta'minlaydi.

94. Mazkur kelishuvning ayrim me'yoriy holatlari jamaa kelishuvlari va shartnomalariga kiritish orqali amalga oshirilishi lozim.

95. Mazkur Kelishuvga imzo chekkan har bir Taraf uning maqsadlari ro'yobga chiqarilishi uchun o'z vakolatlari doirasida mas'uliyatni tan oladi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammlolarni hal etishda hamkorlik qilish majburiyatini oлади.

96. Taraflar mazkur kelishuvning amal qilish davrida quyidagilarni zarur deb hisoblaydilar:

a) ijtimoiy-mehnat munosabatlarining eng muhim masalalari yuzasidan Taraflarning manfaatlariiga taalluqli qarorlar qabul qilishdan oldin o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazish;

b) har yili kamida bir marta Kelishuv bajarilishining borishi va yakunlarini muhokama qilib borish.

97. Mazkur Kelishuvga imzo chekkan Taraflarning har biri unga avval olingan majburiyatlarining bajarilishiga to'sqinlik qilmaydigan o'zgartirish va qo'shimehalar kiritish




yuzasidan takliflar berishga haqlidir. Ushbu takliflar Taraflarning o'zaro roziligi bilan qabul qilinishi mumkin.

98. Mazkur Kelishuv bajarilishi ustidan nazoratni ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha viloyat uch tomonlama komissiyasi amalga oshiradi.

20 \_\_\_\_ yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ da Nurafshon shahrida tuzildi.

**Toshkent viloyati hokimi**

 Z.Mirzayev

Nurafshon sh.

2023 yil

- son

**Toshkent viloyati**

**Kengashi**

raisi

 M.Nosirov

Nurafshon sh.


**O'zbekiston Savdo-sanoat  
palatasining Toshkent viloyati**

Iudadiy

Boshqarmasi

13 mili

Nuraf-



- son

